

Hamidova Muhayyoxon Obidovna

*Namangan davlat universiteti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi professori,
f.f.n.*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

YOZUVCHINING IJODIY YO'LI VA ADABIY MAKTABI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining atoqli namoyandasi Shukur Xolmirzayevning ijodiy faoliyati, adabiy qarashlari va u tomonidan shakllantirilgan adabiy maktabning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil asosida yoritilgan. Yozuvchining turli davrlardagi asarlari – xususan, hayot va jamiyatga daxldor dolzarb muammolarni ko'taruvchi hikoya va qissalari orqali uning realistik adabiy tamoyillari, obrazlar tizimi va badiiy uslubi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Adabiy maktab, o'zbek nasri, realizm, badiiy tafakkur, hikoya, qissa, yozuvchi ijodi.

Хамидова Мухайёхон Обидовна

Наманганский государственный университет, профессор кафедры дошкольного и начального образования, кандидат филологических наук

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

ТВОРЧЕСКИЙ ПУТЬ ПИСАТЕЛЯ И ЛИТЕРАТУРНАЯ ШКОЛА

Аннотация: В статье на основе научного анализа рассматриваются творчество, литературные взгляды и особенности литературной школы видного деятеля узбекской литературы Шукура Холмирзаева. Анализируются реалистические принципы, образная система и художественный стиль писателя разных периодов, в частности, рассказы и повести, поднимающие актуальные вопросы общественной жизни.

Ключевые слова: Литературная школа, узбекская проза, реализм, художественная мысль, повесть, рассказ, творчество писателя.

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna

*Namangan State University, Professor, Department of Preschool and Primary
Education, candidate of philological sciences*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

THE WRITER'S CREATIVE PATH AND LITERARY SCHOOL

Abstract: This article discusses the creative activity, literary views, and distinctive features of the literary school formed by Shukur Kholmirezayev, a prominent figure in Uzbek literature, on the basis of scientific analysis. The writer's works of different periods - in particular, stories and short stories that raise topical issues related to life and society - analyze his realistic literary principles, system of images, and artistic style.

Keywords: Literary school, Uzbek prose, realism, artistic thought, story, short story, writer's work.

Kirish

O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Shukur Xolmirzayev o'zining rang-barang va sarmazmun ijodi bilan hozirgi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining gullab-yashnashiga, yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarilishiga samarali hissa qo'shgan

zabardast adibdir. XX asr o'zbek nasrining namoyon bo'lishi avvalo adabiyotga olib kirilgan hayot materialining mazmundorligi, rang-barangligi, takrorlanmasligi bilan bog'liqdir. Shukur Xolmirzayev "adabiyotga Surxon an'anasini, o'zi tug'ilib o'sgan Boysun tog'larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so'zlash tarzini-dialektini olib kirdi"[8, 77]. Bu xususiyat ko'proq yozuvchining milliy-mahalliy an'anaga boy bo'lgan hikoyalarida ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek adabiyotshunosligida Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodi, badiiyatiga doir taqriz, maqola, dissertatsiya, monografiyalar, zamondoshlar xotirasi yaratilgan. Jumladan, H.Karimovning "Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti"[4, 80], akademik B.Nazarovning "Shukur Xolmirzayev"[5, 497] nomli maqolasi yaratilgan. Chunonchi, H.Karimov o'z risolasida Shukur Xolmirzayevning shu vaqtga qadar yaratgan asarlari haqida ommabop nashrlarga xos tarzda kengroq ma'lumot berish yo'lidan borgan. Sh.Doniyorova hamda G.Tavaldiyeva adib hikoyalarida badiiy-uslubiy izlanishlarning o'ziga xosligini, realistik badiiy idrok etish prinsiplarini tadqiq etishdi. M.Hamidova adib ijodida milliy qahramon yaratish muammosini, M.Qo'chqorova adibning essellarini, K.Shahobov esa Shukur Xolmirzayev nasrida o'tish davri qahramonlari va o'tish davri voqeligining badiiy talqinini o'rgangan bo'lsa, M.Tilovova esa yozuvchi hikoyalarida badiiy ijod fenomenologiyasi masalasini tadqiq etgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Adabiy ijodini 60-yillarning birinchi yarmidan boshlagan Shukur Xolmirzayev o'zining ilk qadamlaridanoq kitobxonga iste'dodli hikoyanavis sifatida tanilgan edi. Ijodining birinchi bosqichi hisoblangan bu davrda yaratilgan hikoyalari adib uchun har bir ijodkorda bo'lgani singari hayotga yondashish, voqelikni badiiy idrok eta bilish, diqqatga sazovor mavzu tanlash, bu mavzuni o'zi tanlagan tasvir yo'li-muayyan badiiy prinsip orqali tadqiq etishda ijodiy maktab bo'ldi.

Shukur Xolmirzayev adabiyotga keng ko‘lamli hayot taassurotlari bilan kirib keldi. Inson xarakterining murakkab va rang-barangligi, voqelikning turli holatlari, ona tabiat manzarasi-bularning bari adib asarlari qatiga singgan. Adabiyotshunos M.Qo‘shjonov ta’kidlaganidek, “Shukur Xolmirzayevning asarlarida hali hamma narsa atroflicha aks ettirilmagan bo‘lishi, ba’zan avtor naturalistik tasvirlardan ham qutula olmagan bo‘lishi mumkin. Lekin voqealarni tasvir etishda topgan yo‘li, prinsiplari kishini quvontiradi” [7, 357].

Shukur Xolmirzayev adabiyot maydoniga kirib kelgan tengqurlari Uchqun Nazarov, O‘lmas Umarbekov, O‘tkir Hoshimovlar ijodining dastlabki bosqichida “realistik badiiy tasvir prinsiplarining o‘zlashayotgani, zamona ruhini idrok etishga intilish va hayot qatlamlariga qo‘l urish borayotganini”ni ko‘radi. Bunday jarayon adib ijodining o‘ziga ham bevosita tegishlidir. Chunki yozuvchining qator asarlarida ana shunday xususiyat, ya’ni realistik tasvir yo‘llari orqali voqelikni o‘ziga xos tarzda idrok etish, ya’ni hayot qatlamlaridan ibratli voqealar topib tasvirlash va ulardan katta hikmat chiqarishga intilish ko‘zga tashlanadi.

Yozuvchi kuzatishlari natijasida tasvir yo‘lining “ilk, eng to‘g‘ri va samarali” bosqichlarining dastlabkisi “ko‘raman, eshitaman va sezaman” prinsipi asosida ijod qilish degan xulosaga keladi. Bunda Shukur Xolmirzayev har qanday ijodkor o‘zi ko‘rgan, bilgan, o‘ziga yaqin, tanish voqelik haqida yozsagina realistik tasvir prinsiplarini o‘zlashtirish uchun qadam tashlagan bo‘ladi deb hisoblaydi. Bu esa yozuvchi asarlarining tabiiy, hayotiy chiqishini ta’minlaydi. Adib hikoyalarida tasvirlangan hayot materiali o‘ziga yaqin voqelik, ya’ni qahramonlari o‘zi tug‘ilib o‘sgan Surxondaryoning tog‘, dasht, qishloq odamlaridir. Bu odamlar xarakteridagi o‘ziga xos xususiyatlar ularning kundalik turmush tarzlaridagi oddiy voqealar orqali ko‘rsatiladi. “Men avtorning o‘zidan uzoq temada yozishiga qarshi emasman, - deydi yozuvchi.- O‘ziga yaqin narsa hamisha “yangi” bo‘ladi, adabiyotni boyitishga qodir yozuvchi uchun esa, ayni muddao...” [7, 355] Shu nuqtai nazardan qaraganda, Shukur Xolmirzayev “adabiyotga Surxon koloritini – o‘zi tug‘ilib o‘sgan Boysun tog‘larining manzaralarini, surxondaryoliklar hayotini, udumlarini, betakror so‘zlash tarzini –dialektini olib kirdi” [6, 199].

Tahlillar va natijalar

1940-yilning 24-martida Surxondaryoning Boysunida tugʻilgan Shukur Xolmirzayev maktabda oʻqib yurgan paytlaridayoq ijod qila boshlagan. Ilk hikoyalari tuman gazetasida bosilgan ijodkor Toshkent davlat universitetida tahsil oldi.

Adib Toshkent davlat universitetini bitirgach “Yosh gvardiya” nashriyotida muharrir, “Guliston”, “Sharq yulduzi” jurnallarida boʻlim mudiri, maʼlum muddat Muqimiy nomidagi teatrda adabiy emakdosh boʻlib faoliyat koʻrsatgan. Soʻng butun umrini badiiy ijodga bagʻishlagan adibning asosiy tarjimai holi: orzulari, dardlari, armonlari; [amalga oshirgan](#), amalga oshirolmagan ishlari; nafratlari-yu sevinch- iltiroblari, oʻzidan, doʻstlaridan, idealidan oʻtgan sifatlar uning asarlari bagʻrida yotadi. Xususan, talaba-adib buyuk aktyor Shukur Burhonov rahbarligida tashkil etilgan toʻgarakda Shekspirning mashhur asaridagi Gamlet rolini oʻynagani hayotida va ijodida muhim oʻzgarish yasagan (Ofeliya rolini sharqshunoslik fakultetda tahsil olayotgan Saida ismli qiz ijro etgan. Havasmand aktyorlar keyin oila qurishgan). Shukur Burhonov bilan uzoq vaqt mobaynida ustoz-shogird munosabatlari yozuvchining u haqida kattagina hujjatli esse yozishiga sabab boʻlgan. Adabiyotshunos Matyoqub Qoʻshjonov rahbarlik qilgan adabiyot toʻgaragidagi mashgʻulotlar taassuroti ular oʻrtasida doʻstona munosabat uygʻonishiga va “U kishi ustoz-men shogird” nomli hujjatli qissa yozilishiga olib keldi. Mashhur musavvir, [bir muhitda tugʻilib](#), tarbiya topgan Roʻzi Choriyev bilan qadrdonchilik rishtalari u haqida ajoyib bir adabiy portret yozilishiga turtki bergan. Tarjimai holidagi bu chizgilar izsiz ketmagan. Uning uslubida namoyon boʻluvchi ogʻir vazminlik va falsafiy mushohada keskir haqgoʻylik va hatto ayrim “shartakilik”da Sh.Burhonov taʼsiri-yu, gamletona tabiat, prinsipiiallik, hayotga, odamlarga oʻtkir tanqidiy ruh bilan qarash hamda ularga xolis, samimiy munosabatda boʻlishning uygʻunlashib ketishida [ustoz tanqidchidan organishni](#); tabiatni musavvirona chizish, soʻzda ham rang, boʻyoqdagi kabi iliqlikni bera olish, rang-tasvirdagi kichik bir choʻgʻdek detaldan butun asar qiyofasini yoritib

yuborish mahoratlarida rassom do'stining jiddiy ta'sirini sezmaslik mumkin emas. Yildan yilga, asardan asarga yozuvchi mahorati sayqal topib borgan.

Shukur Xolmirzayev hayotiy faktlarni qiyoslash – chog'ishtirish haqiqatni oydinlashtirishda bir ochqich deb bilardi. Shu bois chuqur fikr-mushohadaga cho'mib muqoyasalarga berilish adib tabiatidagi yana bir yorug' xislatlardan biri edi. Uning ilmi, salohiyati, qiziqishlari ko'lami fe'li qadar keng, ko'ngli monand baland edi.

Shukur Xolmirzayev nazariga tushib qolgan yosh shoir-yozuvchilarning qadamini zimdan kuzatib borardi. Qachonki ilk taassurotlari tasodif emasligiga ishonch hosil qilgach, kimgadir g'oyibona mehr qo'yardi. O'zini ko'rmasdan, gaplashmasdan mehr qo'yardi-qolardi. Tuyg'ulariga ishonardi, tuyg'ulari uni aldamasdi. Shoir Iqbol Mirzoga ham ana shunday mehri boshqacha bo'lganini Nabijon Boqiy bilan bo'lgan suhbatdan ham kuzatish mumkin.

Shukur Xolmirzayev badiiy adabiyotning tirik timsoli edi. Umrining oxirlarida adib uch jildlik "Saylanma"sini nashrga tayyorlashga astoydil kirishadi. Yozuvchining qizi, adabiyotshunos Sayyora opa Xolmirzayeva otasining barcha katta-kichik asarlarini to'plab yurganligi tufayli adib "Saylanma"ning birinchi va ikkinchi jildlarini qo'lga oldi, uchinchi jildining korrekturasini o'qib berishga ulguradi. Nabijon Boqiy birinchi va ikkinchi jildlarga muharrir bo'ladi va annotatsiyalarni ham o'zi yozadi.

Birinchi jildga yozilgan annotatsiyada adib ijodi xususidagi quyidagi fikrlar berilgan: "Shukur Xolmirzayev badiiy solnoma yaratgan yozuvchi. O'zbek xalqining 50 yillik hayoti ana shu solnomada haqqoniy aks ettirilgan. Hikoyalarning har biri mustaqil asar bo'lsa-da, lekin ulug'vor imoratga qo'yilgan g'ishtga o'xshaydi: agar birorta g'isht o'z o'rnidan olib qo'yilsa, imorat qulab tushmagan taqdirda ham, nuqsonli ko'rinadi. Demak, Shukur Xolmirzayev barpo etgan imoratni benuqson ko'rish uchun nafaqat "tanlangan asarlar"ini, balki uch jildlikka kirmay qolgan boshqa asarlarini ham mutolaa qilish kerak.

Haqqparvar va xalqparvar adibimizning uch jildlik saylanmasi shak-shubhasiz ko'nglimizni ham, kitob javonimizni ham obod qiladi"[7, 4].

Ikkinchi jilddan 1984-yilda yozilgan “Tabassum” hikoyasidan 1996-yilga qadar yaratilgan eng sara asarlari o‘rin olgan.

Adibning adabiy merosi nihoyatda salmoqli: yuzdan ortiq hikoya, e‘lon qilingan, 5 ta roman, 4 ta qissa, bolalar uchun bitta komediya, va bitta pyesa, ikkita drama, ikkita kinossenariy, “Tungi qadamlar” nomli radiopyesa, yigirmadan ortiq esse, o‘nga yaqin ocherk, o‘ndan ziyod maqola yozgan yozuvchini haqli ravishda adabiyotimiz xazinasini boyitgan so‘z zargari deyishga haqlimiz. Shukur Xolmirzayev o‘zbek hikoyachiligini ustoz Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko‘targan yozuvchilardan biridir. Uning hikoya, qissa va romanlari tesha tegmagan voqealarga bag‘ishlanganligi, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi”. Adibni bir zamonani, o‘tmishni kuzatish, sinchiklab o‘rganish, xalqning his-tuyg‘ulari, dardi va orzularini aks ettirishga bo‘lgan talab hamda hikoya va qissa janrlarida orttirilgan tajriba yozuvchini turli yo‘nalishdagi romanlar yozishga undagan.

“Adabiyot-hasratdan boshqa narsa emas. Faqat, yozuvchining oddiy odamdan farqi-oddiy odam o‘z dardidan hasrat qilsa, yozuvchi birovlar dardidan hasrat qiladi” [11, 77] deb yashab o‘tgan adib o‘z hayotiy prinsiplaridan, ona yurt va uning tarixini behad sevuvchi katta qalbi, or-nomusi va shijoati bilan hamma davrlarda ibrat oladigan shaxs edi.

Adib ijodiy merosi serqirra va serjiloligi bilan o‘quvchini maftun etadi. Bu ohangdorlik va rang-baranglik zahirida adib suygan erkinlik g‘oyasi mujassam desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Shukur Xolmirzayev ijodiy faoliyati davomida hech kimdan ohang olmadi hamda hech kimga ham soz va ovozini berib qo‘ygan emas. “Bizga yetishmay kelayotgan narsalardan eng muhimlari-ijodda halolligu hayotda mardlikdir”[9, 5], degan adibning gaplari ham fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi.

Shukur Xolmirzayevning “Farzand” hikoyasida odamiylikning o‘ziga xos bir qirrasi tilga olinadi. Adabiyotimizda ko‘p uchraydigan bir salbiy voqea bor: erkak va ayol ancha vaqt turmush quradilar, bola-chaqali bo‘ladilar, keyin qarasalar, ularning oilasi sevgisiz qurilgandek bo‘lib chiqadi. Odatda, bu holat erkaklarda

ko'p bo'ladi. Shu asosda u jilmayib boqqan har bir jononga ko'ngil qo'yishga tayyor turadi. Yozuvchi qahramonning "muhabbatini topdi" degan ma'noda olqishlaydi, ba'zi tanqidchilar esa bunday yozuvchini haqiqiy muhabbat kuychisi deb e'lon qiladi. Masala hikoyada to'g'ri qo'yilgan. Odamiylik o'tkinchi hisdan yuqori turadi. Biroq asarning yechimi to'la ishonarli emasga o'xshaydi. Qahramonning faqat bola tufayli shaxtidan qaytishi asardan kelib chiqadigan ma'noni bir oz maydalashtiradi. Muhabbat, odatda, eng kuchli hislardan hisoblanadi. Yigit yangi topilgan muhabbatidan voz kechgan ekan, buning boshqa sabablari ham bo'lishi mumkin. Balki o'g'liga bo'lgan otalik hissi bilan uning ishonchli jufti haloliga bo'lgan muhabbati ham qo'shilgandir. Biroq yozuvchi bu haqda hech nima demaydi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayev o'zining badiiy merosi, milliy adabiyotga sadoqat bilan xizmat qilganligi, xalq ruhiyatini teran tasvirlay olgan yozuvchilik mahorati bilan o'zbek adabiyotida munosib o'rin egallagan ijodkordir. Uning asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, yangi avlod kitobxonlari uchun ruhiy va axloqiy maktab bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Boqiy N. Shukur akaning bog'i //Shukur Xolmirzayev zamondoshlar xotirasida.-Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.-230 b.
- 2.Hamidova M. Hozirgi o'zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): Monografiya. - Toshkent: Navro'z, 2020.-148 b.
- 3.Hamidova M.O.Shukur Xolmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Research 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.
- 4.Karimov H. Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti.- Toshkent: Qatortol-Kamolot, 1999. -80 b.
- 5.Karimov N., Mamajonov S., Nazarov B., Normatov U., Sharafiddinov O. XX asar o'zbek adabiyoti tarixi.-Toshkent: O'qituvchi, 1999.-B. 497-511.
- 6.Normatov U. Nasrimiz an'analari.-Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978.- B. 199.
- 7.Qo'shjonov M. Saylanma. 2 jildlik.-Toshkent: Adabiyot va san'at, 1982. 1 jild.-B.357.
- 8.Tavaldiyeva G.Shukur Xolmirzayev hikoyalarida voqelikni badiiy idrok etish prinsiplari: Filol.fan.nomz....diss.-Toshkent, 2001.- B. 77.

9.Toshboyev O. Abadiy zamondosh. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodiy faoliyatidan lavhalar.-Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.-480 b.

10.Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: III jildlik. 1-jild: Hikoyalar.-Toshkent: Sharq, 2003. 448 b.

11.Xolmirzayev Sh. Bilib yozgan yaxshi // Sharq yulduzi, 1977.- № 2.-B.77.